



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 7 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 8, НОМЕР 7

LOOK TO THE PAST

VOLUME 8, ISSUE 7



ТОШКЕНТ-2025

Бош мухаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош мухаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори,
профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари
университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Агзамова Гулчехра Азизовна
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори, доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика
университети

Аминова Азиза Марксовна
тарих фанлари доктори, доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори,
Тошкент ирригация ва кишлок
хужалигини механизациялаш
мухандислари институти
Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор,
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори, профессор,
Қариши давлат техника университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Қариши давлат университети

Махкамова Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент ахборот технологиялари
университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Агамуратовна
тарих фанлари доктори, доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодири Абдуллаевна
тарих фанлари доктори
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори, профессор,
Андижон давлат университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори, профессор,
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори, профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори, профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори,
Озарбайжон давлат университети

Сайнова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори,
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори, в.б.профессор,
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий
педагогика университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайджон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Бахадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Тўхтабасев Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети


1. Юлдуз Эргашева ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ НА ТЕРРИТОРИИ УЗБЕКИСТАНА В ГОДЫ II МИРОВОЙ ВОЙНЫ.....	5
2. Nilufar Djurayeva O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTINING YANGI BOSQICHDA XOTIN-QIZLARGA MUNOSABAT MASALASIDAGI TUB ISLOHOTLARNING USTUVOR YO‘NALISHLARI..	13
3. Камола Саипова НАЦИОНАЛЬНО-ГОСУДАРСТВЕННОЕ РАЗМЕЖЕВАНИЕ И ЕГО ВОЗДЕЙСТВИЕ НА ФОРМИРОВАНИЕ НАЦИОНАЛЬНОГО СОСТАВА УЗБЕКСКОЙ ССР.....	26
4. Отабек Алимардонов ХАЛҚ ДИПЛОМАТИЯСИНИНГ ТЎРТ КВАДРАНТИ (ЧОРАК) ПАРАДИГМАСИ: НАЗАРИЙ ТИПОЛОГИЯ ВА ЎЗБЕКИСТОН АМАЛИЁТИ ТАҲЛИЛИ.....	34
5. Zilola Abdualimova SOVET PLAKATLARI TARG‘IBOT VOSITASI SIFATIDA (MIRZACHO‘LNI O‘ZLASHTIRISH MISOLIDA).....	45
6. Шерзод Бахранов ЎЗБЕКИСТОН ССРДА ПАХТАЧИЛИК ИLMИЙ – ТАДҚИҚОТ ИНСТИТУТИ ФАОЛИЯТИ ТАРИХИДАН.....	52
7. Abduvali Berdiyev SHARQIY TURKISTON BILAN SAVDO ALOQALARINING RIVOJLANISHIDA QO‘QON KARVON YO‘LLARINING O‘RNI VA ULARNING MINTAQAVIY IQTISODIYOTGA TA‘SIRI (18–19-ASRLAR).....	58
8. Икрамжон Исмаилов ФАРҶОНА ВОДИЙСИ ВИЛОЯТЛАРИДА ОЛИЙ ТАЪЛИМ СОҲАСИДА КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШДАГИ МУАММО ҲАМДА ЎЗГАРИШЛАР (1991-2020 йй).....	69
9. Земфира Курбанова ЦИКЛЫ ПОМИНОВЕНИЯ В СЕМЕЙНЫХ ОБРЯДАХ КАРАКАЛПАКОВ И ИХ ЦЕНТРАЛЬНОАЗИАТСКИЕ ПАРАЛЛЕЛИ.....	80
10. Tamara Ro‘ziyeva MIRZO SIROJIDDIN HAKIMNING “TUHAFI AHLI BUXORO” ASARIDA TURKISTON JAMIYATI HAQIDA.....	87
11. Sarvinoz Toshmurodova MILLIY SPORT TIZIMI VA OLIMPIYA HARAKATI: O‘ZBEKISTON TAJRIBASI.....	92
12. Elyor Hojamberdiyev TURON ARXELOGIYASINI O‘RGANISHDA YONDASHUV VA TADQIQOT USULLARI (ERON OLIMLARI MISOLIDA).....	99



Nilufar Dalibayevna Djuraeva,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
O‘zbekiston tarixi kafedrasi mudiri,
tarix fanlari nomzodi, professor

O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTINING YANGI BOSQICHDA XOTIN-QIZLARGA MUNOSABAT MASALASIDAGI TUB ISLOHOTLARNING USTUVOR YO‘NALISHLARI

For citation: Nilufar D. Djuraeva. PRIORITY DIRECTIONS OF RADICAL REFORMS IN RELATION TO WOMEN AT THE NEW STAGE OF UZBEKISTAN'S DEVELOPMENT. Look to the past. 2025, vol. 8, issue 7, pp.13-25

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.16755264>

ANNOTATSIYA

Maqolada O‘zbekiston taraqqiyotining yangi pog‘onasida jamiyat hayotining ijtimoiy – iqtisodiy va madaniy-ma’rifiy sohalarida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda ayollarning faolligi yildan-yilga ortib borayotganligi asoslangan. O‘zbekistonning yangi taraqqiyot strategiyasi xotin-qizlarga munosabat masalasida “Tenglik va adolat” tamoyili ostida barcha fuqarolar uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta’minlash; “Faollik va ishtirok” tamoyili asosida ayollarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirokini rag‘batlantirish; “Barqaror rivojlanish” tamoyili asosida BMTning Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (BRM) doirasida gender tengligi O‘zbekistonning uzoq muddatli rivojlanishining ajralmas qismi sifatida qarash; “Innovatsion yondashuv” tamoyili asosida zamonaviy texnologiyalar va raqamli platformalar ayollarning imkoniyatlarini kengaytirish uchun jalb qilishga yo‘naltirilgan konseptual asoslarga tayanishi ko‘rsatib berilgan.

O‘zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichida xotin-qizlar masalasi nafaqat ijtimoiy adolat, balki mamlakatning iqtisodiy va madaniy yuksalishi uchun strategik ahamiyatga ega ekanligi ilmiy nuqtai nazardan korsatib berilgan. Gender tengligini ta’minlash, ayollarning ta’lim va mehnat bozorida faolligini oshirish, shuningdek, ularning huquqlarini himoya qilish orqali O‘zbekiston barqaror va farovon kelajak sari qadam tashlamoqda. Ushbu konseptual asoslar mamlakatimizning global maydondagi obro‘-e’tiborini mustahkamlashga va xalqimizning turmush darajasini yaxshilashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, jamiyat, islohot, xotin-qizlar, teng huquq va imkoniyatlar, BMTning Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (BRM), gender tenglik, konseptual asos, ta’lim va mehnat bozori, huquq, barqaror va farovon kelajak, konseptual asos, mamlakat, global maydon.

Нилуфар Далибаевна Джураева,
Узбекский государственный университет мировых языков
заведующий кафедрой История Узбекистана,
кандидат исторических наук, профессор

ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЕ КОРЕННЫХ РЕФОРМ В ОТНОШЕНИИ ЖЕНЩИН НА НОВОМ ЭТАПЕ РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА

АННОТАЦИЯ

Статья основана на том, что на новом этапе развития Узбекистана активность женщин в комплексных реформах, реализуемых в социально-экономической и культурно-образовательной сферах общества, с каждым годом возрастает. Новая стратегия развития Узбекистана основана на принципе «Равенства и справедливости» по отношению к женщинам, обеспечении равных прав и возможностей для всех граждан; на принципе «Активности и участия» поощрении активного участия женщин в политических, экономических и социальных процессах; на принципе «Устойчивого развития» рассматривать гендерное равенство как неотъемлемую часть долгосрочного развития Узбекистана в рамках Целей устойчивого развития ООН; на принципе «Инновационного подхода» опираться на концептуальные основы, направленные на привлечение современных технологий и цифровых платформ для расширения возможностей женщин.

Научно доказано, что на новом этапе национального развития Узбекистана женский вопрос имеет стратегическое значение не только для социальной справедливости, но и для экономического и культурного подъема страны. Обеспечивая гендерное равенство, повышая активность женщин в образовании и на рынке труда, а также защищая их права, Узбекистан делает шаги к стабильному и благополучному будущему. Эти концептуальные основы служат укреплению престижа нашей страны на мировой арене и повышению уровня жизни нашего народа.

Ключевые слова: Узбекистан, общество, реформа, женщины, равные права и возможности, Цели устойчивого развития ООН, гендерное равенство, концептуальные рамки, образование и рынок труда, закон, стабильное и благополучное будущее, концептуальные рамки, страна, мировая арена.

Nilufar D. Djuraeva,

Uzbekistan State University of World Languages
Head of the Department of History of Uzbekistan,
Candidate of Historical Sciences, Professor

PRIORITY DIRECTIONS OF RADICAL REFORMS IN RELATION TO WOMEN AT THE NEW STAGE OF UZBEKISTAN'S DEVELOPMENT

ABSTRACT

The article is based on the fact that at the new stage of development of Uzbekistan, women's activity in complex reforms implemented in the socio-economic and cultural-educational spheres of society is increasing every year. The new development strategy of Uzbekistan is based on the principle of "Equality and Justice" in relation to women, ensuring equal rights and opportunities for all citizens; on the principle of "Activity and Participation" encouraging the active participation of women in political, economic and social processes; on the principle of "Sustainable Development" to consider gender equality as an integral part of the long-term development of Uzbekistan within the framework of the UN Sustainable Development Goals; on the principle of "Innovative Approach" to rely on conceptual frameworks aimed at attracting modern technologies and digital platforms to empower women.

It has been scientifically proven that at the new stage of national development of Uzbekistan, the women's issue is of strategic importance not only for social justice, but also for the economic and cultural rise of the country. By ensuring gender equality, increasing women's activity in education and the labor market, and protecting their rights, Uzbekistan is taking steps towards a stable and prosperous future. These conceptual foundations serve to strengthen the prestige of our country on the world stage and improve the standard of living of our people.

Index Terms: Uzbekistan, society, reform, women, equal rights and opportunities, UN Sustainable Development Goals, gender equality, conceptual framework, education and labor market, law, stable and prosperous future, conceptual framework, country, world stage.

Dolzarbligi:

O‘zbekiston jamiyatida xotin-qizlarning o‘rni va ularga bo‘lgan munosabat masalasi so‘nggi yillarda tobora ko‘proq e‘tibor qozonmoqda. Bu mavzu nafaqat ijtimoiy adolat va tenglik masalasi sifatida, balki mamlakatning umumiy rivojlanishi nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xotin-qizlarga munosabat masalasining dolzarbligi bir qator omillar, jumladan, gender tengligi, iqtisodiy imkoniyatlar, ta‘lim, oiladagi zo‘ravonlik va madaniy an‘analar bilan chambarchas bog‘liqdir.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi so‘nggi yillarda xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish va gender tengligini ta‘minlash yo‘lida muhim qadamlar tashladi. 2019-yilda qabul qilingan “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar to‘g‘risida”gi qonun bu borada muhim yutuq sifatida e‘tirof etiladi. Ushbu qonun ayollarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishini rag‘batlantirishga qaratilgan. Biroq, qonunchilikdagi o‘zgarishlar amalda to‘liq ro‘yobga chiqishi uchun jamiyat mentalitetida ham o‘zgarishlar talab etiladi. Ko‘pincha an‘anaviy qarashlar va stereotiplar ayollarning to‘laqonli huquqlardan foydalanishiga to‘sqinlik qiladi.

Xotin-qizlarning iqtisodiy faolligi O‘zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishi uchun muhim omil hisoblanadi. Shuning uchun ham, ayollarning tadbirkorlik bilan shug‘ullanishi va mehnat bozorida ishtirok etishi uchun imkoniat va imtiyozlar berilmoqda. Ayollar uchun maxsus grantlar, kreditlar va o‘quv dasturlari tashkil etilmoqda. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tomonidan ayollarning kasb-hunar o‘rganishiga qaratilgan loyihalar amalga oshirilmoqda. Ammo, ayollarning ko‘pchiligi hali ham past maoshli sohalarida ishlaydi va rahbarlik lavozimlarida ularning ulushi nisbatan kamligicha qolmoqda. Bu esa gender tengsizligining iqtisodiy jihatini ko‘rsatadi.

Ta‘lim sohasida xotin-qizlarning faolligi yuqori bo‘lib, oliy ta‘lim muassasalarida talaba qizlar soni yildan-yilga oshib bormoqda. Biroq, hali ham, qishloq hududlarida yashovchi qizlarning ta‘limga kirishi cheklangan bo‘lib qolmoqda. Bunga oilaviy majburiyatlar, erta turmush qurish va moliyaviy qiyinchiliklar sabab bo‘lmoqda. Shu sababli, ta‘lim sohasida teng imkoniyatlarni ta‘minlash uchun qo‘shimcha choralar ko‘rish zarur.

Xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlik masalasi O‘zbekistonda hali ham dolzarb muammo sifatida qolmoqda. Oilaviy zo‘ravonlikka qarshi kurashish bo‘yicha qonunlar qabul qilingan bo‘lsa-da, ushbu muammoni to‘liq bartaraf etish uchun nafaqat qonuniy choralar, balki jamoatchilik ongini o‘zgartirish ham zarur. Ayollarga psixologik va huquqiy yordam ko‘rsatuvchi maxsus markazlar tashkil etilmoqda, ammo bu markazlarning faoliyati hali keng miqyosda emas. Jamiyatda zo‘ravonlikka qarshi xolis munosabatni shakllantirish va ayollarni himoya qilish mexanizmlarini mustahkamlash muhim vazifa sifatida qolmoqda.

O‘zbek jamiyatida an‘anaviy qadriyatlar va gender rollari hali ham katta ta‘sirga ega. Ko‘pincha ayollar oila va farzand tarbiyasi bilan chegaralangan deb qaraladi, bu esa ularning kasbiy va ijtimoiy faolligini cheklaydi. Shu bilan birga, yosh avlod orasida gender tengligi haqidagi zamonaviy qarashlar ommalashmoqda. Bu o‘zgarishlar, ayniqsa, shahar hududlarida yaqqol ko‘rinadi. Ammo qishloq joylarda an‘anaviy qarashlar hali ham ustunlik qiladi, bu esa xotin-qizlarning jamiyatdagi faol ishtirokiga to‘sqinlik qiladi.

Xotin-qizlarga munosabat masalasi O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Gender tengligini ta‘minlash, ayollarning ta‘lim va mehnat bozoridagi imkoniyatlarini kengaytirish, zo‘ravonlikka qarshi kurashish va jamiyat mentalitetini o‘zgartirish bu yo‘nalishda muhim vazifalardir. Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar ijobiy natijalar bermoqda, ammo bu jarayon uzoq muddatli va doimiy harakatlarni talab qiladi. Har bir fuqaro, xotin-qizlarning huquqlari va imkoniyatlarini qo‘llab-quvvatlash orqali jamiyatning yanada adolatli va farovon bo‘lishiga hissa qo‘shishi mumkin.

Metodlar:

Maqolada umumqabul qilingan ilmiylik, tarixiylik, qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan holda, O'zbekistonning yangi taraqqiyot strategiyasida xotin-qizlar masalasining konseptual asoslari ilmiy tahlil etilgan.

Tadqiqot natijalari:

O'zbekistonda xotin-qizlar masalasi zamonaviy jamiyat rivojlanishining eng muhim yo'nalishlaridan biri bolib, ayollarning oila va jamiyatdagi mavqei, qonuniy manfaatlarining himoya qilinishi, bandligini ta'minlash, onalik va bolalikni muhofazalash kabi masalalarni o'zida ifoda etgan ijtimoiy muammolar majmui hisoblanadi. Shuning uchun ham, O'zbekistonda xotin-qizlar masalasi mamlakatning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi.

Xotin-qizlar masalasini hal qilishda zamonaviy muammolar nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda, quyidagi yo'nalishlarga e'tibor qaratish talab etiladi:

- xotin-qizlarning ijtimoiy-huquqiy ahvoli;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlardagi ishtiroki;
- siyosiy tizimlardagi mavqei;
- madaniy rivojlanish va diniy hayotdagi o'rni;
- xalqaro harakatlardagi faoliyati;
- reproduktiv salomatligi hamda uni saqlash masalalari;
- oilaviy munosabatlarning shakllanishi va mustahkamlanishidagi o'rni[1] shular jumlasiga kiradi.

Ma'lumki, ijtimoiy rivojlanish va siyosiy jarayonlarni mamlakat aholisining yarmidan ko'pini tashkil etuvchi xotin-qizlar ishtirokini hisobga olmagan holda baholash mumkin emas. Aholi ijtimoiy faolligini oshirish ayniqsa, ayollar harakatida yaqqol namoyon bo'ladi. Chunki, bu ijtimoiy guruh jamiyatda bo'layotgan eng keskin voqealarga ham o'ziga xos gender xususiyatlari orqali munosabat bildiradi va o'zining fuqarolik tashabbuslarini reallikka aylantirish qobiliyatiga ega jins hisoblanadi. Ayollar harakati vakilalari nafaqat o'z manfaatlarini, balki mamlakat va butun jamiyat uchun ahamiyatli bo'lgan ehtiyojmand aholi qatlamlari – bolalar va keksa-nafaqaxo'rlar pozitsiyalarini ham himoya qiladi. Zamonaviy jamiyatda rivojlangan ayollar harakati siyosiy jarayonning ajralmas qismi bo'lib, xotin-qizlarning tashkilotlarga birlashuvi ushbu ijtimoiy guruhga muhim siyosiy qarorlarning qabul qilinishida ishtirok etish imkoniyatini beradi.

Xotin-qizlar harakati nafaqat ayollarning maqomi bilan bevosita bog'liq bo'lgan keng ko'lamlil masalalarni, ya'ni ularning jamiyat hayotining turli sohalaridagi roli va o'rni, iqtisodiy va siyosiy manfaatlarini o'zida aks ettiradi, balki jamiyat taraqqiyoti va mamlakatda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish istiqbollari o'z ichiga olgan ijtimoiy umumiy qonuniyatlarni ham qamrab oladi. Bu jarayonda esa xotin-qizlar tashkilotlarining o'rni va roli muhim ahamiyat kasb etadi.

An'anaviy jamiyatda xotin-qizlarning ijtimoiy faoliyati va ayollar bilan bog'liq muammolar doimo tadqiqotchilar e'tiborini jalb etib kelgan. Bu borada so'nggi yillarda tarix, ijtimoiy falsafa, huquq, iqtisod, pedagogika fan sohalarida xotin-qizlarga munosabat masalasi, gender tenglik masalalari, xotin-qizlar huquq va manfaatlarini himoya qilish, ular ijtimoiy himoyasini va bandligini ta'minlash, ayollarning ichki va tashqi migratsiyadagi ishtiroki kabi masalalarga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlari ko'lami kengayib bormoqda. Olib borilayotgan tadqiqot ishlarining nazariy-uslubiy asosini nazariya va amaliyotning birligini ta'minlaydigan, tarix va zamonaviylikni bog'laydigan xolislik, aniqlik va taraqqiyotning sintezini amalga oshirishga imkon beradigan hamda uslubiy yondoshuvga asoslangan holda muammoli-xronologik, qiyosiy-tahliliy metodlar, ijtimoiy-tarixiy voqea-hodisalarning vujudga kelishi, rivojlanishidagi o'zaro aloqadorlik, tizimlilik, rivojlanish kabi ilmiy tamoyillar tashkil etadi. Shuningdek, tadqiqot ishlarining nazariy-uslubiy asosi bilishning dialektik usuli, milliy g'oya va ilmiy tafakkurning umumbashariy tamoyillari bilan ham belgilanadi.

Xotin-qizlar masalasiga oid mavjud muammolar quyidagi sohalarda yaqqol namoyon bo'ldi:

- siyosiy huquqlar va ulardan foydalanish imkoniyatlari;
- alohida shaxs sifatida va oila a'zosi sifatidagi ayollarning yuridik huquqlari;
- xotin-qizlarning ta'lim olish va o'qitishning turli shakllaridan, jumladan kasb-hunar ta'limidan foydalanishlari;

- mehnat faoliyatlari shular jumlasidandir.

Mintaqa xalqlari xususan, O'zbekiston hukumatiga ham tegishli ushbu masalalar davlat siyosatining keyingi yo'nalishini belgilashda asosiy omil bo'ldi. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng respublikada qisqa davr ichida juda ko'p sifat o'zgarishlari sodir bo'ldiki, bular iqtisodda, ijtimoiy jarayonlarda va ayniqsa, xotin-qizlarning jamiyat va oiladagi mavqeining yuksalib borishida o'z ifodasini topdi. Qabul qilingan qator normativ-huquqiy hujjatlarda xotin-qizlar huquqlarining ta'minlanishi, ularning jamiyat siyosiy va madaniy qatlamidagi ishtiroki, ayollar huquqlari kamsitilishiga qarshi ko'riladigan chora-tadbirlar mustaqillikning ilk yillaridanoq o'z samarasini ko'rsatdi[2].

Xotin-qizlarga munosabat masalasini tadqiq etishda Birinchi Prezident I.Karimov va Prezident Sh.Mirziyoyev asarlarini metodologik asos qilib olinishi muhim ahamiyatga ega. Asarlarda ko'tarilgan muhim nazariy-metodologik g'oyalar, ayniqsa ulardagi jamiyat hayotida xotin-qizlarning faolligini oshirish, ayollarning ijtimoiy-ma'naviy va madaniy hayotda tutgan o'rni va roli masalalariga nisbatan bo'lgan ijobiy munosabatlari, ilmiy xulosalari muhim nazariy ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Davlat rahbari Sh.Mirziyoyevning siyosiy qarashlarida millat genofondi, eng avvalo, ayollarning ma'naviy yetukligi va barkamolligi, jismonan sog'lomligi va uning bunyodkorlik hamda yaratuvchanlik imkoniyatlariga bog'liqligi, buni qadrlash va e'zozlash zarurligi, shuningdek, ayollarni jamiyatning teng va faol ishtirokchisiga aylantirish lozimligi yetakchilik qiladi.

Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi[3], respublikada xotin-qizlarning jamiyatning ma'naviy sohalariidagi rolini kuchaytirish asoslab berilgan respublika Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan qonunlar, oila, onalik va bolalikni muhofaza qilish borasida ishlab chiqilgan dasturlar muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 42, 58, 78-moddalari hamda maxsus qonunlarda ayollarning ijtimoiy faolligini oshirish va ijtimoiy muhofazasini ta'minlashning huquqiy kafolatlari yaratilgan[4].

O'zbekiston Respublikasi mustaqillik yillarida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalarda sezilarli yutuqlarga erishdi. Ushbu taraqqiyot jarayonida xotin-qizlarning roli tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatning yangi rivojlanish bosqichida gender tengligi va ayollarning ijtimoiy faolligini oshirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Xususan, 2017-2019 yillar davomida ayollarning jamiyatdagi mavqeini oshirish, ularni qo'llab-quvvatlash, jamiyatning asosiy bo'g'ini bo'lgan oila mustahkamligini ta'minlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish borasida bir qator muhim huquqiy-me'yoriy hujjatlar qabul qilindi[5]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1 ta farmoni[6], 2 ta qarori, hukumatning 6 ta qarori va 4 ta farmoyishi qabul qilindi. Ana shu hujjatlar asosida ilgari imkoniyatlari cheklanib, faoliyati susayib qolgan Xotin-qizlar qo'mitasi va uning hududiy bo'limlari butunlay yangi asosda tashkil etildi. Ularga qo'shimcha vakolat va imkoniyatlar berilib, samarali faoliyat yuritishi uchun zarur sharoitlar yaratildi.

1991-2020-yillar davomida O'zbekiston Respublikasining barcha hududlarida Xotin-qizlar qo'mitasining 208 ta bo'linmalari, 42 mingga yaqin boshlang'ich tashkilotlari faoliyat yuritdi[7]. Xotin-qizlar qo'mitasining hududiy bo'limlari qoshida "Huquqshunos ayollar", "Ilm-fan va ayol", "Ijodkor ayollar", "Tashabbuskor ayollar", "Ayol va salomatlik", "Faxriy ayollar" jamoatchilik uyushmalari tashkil etildi. "Yil ayoli", "Ibratli oila" tanlovlari o'tkazib kelindi. Jamiyat hayotida ijtimoiy faol bo'lib, mamlakat ravnaqiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan, onalik va bolalikni himoya qilish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo'yicha ibratli faoliyat olib borayotgan xotin-qizlar uchun "Mo'tabar ayol" ko'krak nishoni ta'sis etilib, 2019 yil 8 mart Xalqaro xotin-qizlar kuni bayrami arafasida ushbu mukofot bilan 260 nafar ayollar taqdirlandi. 2021 yilda esa, 297 nafar xotin-qizlar mazkur mukofot sohibi bo'lishdi[8].

2019 yilda demokratik islohotlarning chuqurlashuvi va rivojlanishi, ochiq fuqarolik jamiyati tamoyillarining takomillashuvi natijasida eng muhim ijtimoiy-madaniy vazifalardan biri bo'lgan xotin-qizlarning turli tazyiq va zo'rvonliklardan himoya qilish, ularni kamsitishning barcha turlarini bartaraf etish va shaxsning erkin rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan 40 dan ortiq

huquqiy-me'yoriy hujjatlar, xususan, "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida", "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida" hamda "Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash to'g'risida"gi yangi qonunlar qabul qilindi[9]. O'zbekistonda gender tenglik masalasiga ustuvor ahamiyat qaratilib, xotin-qizlarni turli ko'rinishdagi tazyiq va zo'ravonliklardan himoya qilish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. O'zbekiston xotin-qizlarni kamsitish va ta'qib qilishning barcha shakllaridan huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy himoya etishni nazarda tutuvchi xalqaro shartnomalarga qo'shildi. Mehnat kodeksi va boshqa tegishli normativ-huquqiy hujjatlarga xotin-qizlar uchun taqiqlangan kasbiy faoliyat sohaslarini qisqartirish, qonunchilikdagi gender-assimetrik qoidalarni bartaraf etishga qaratilgan qo'shimchalar va o'zgartishlar kiritildi. Ayniqsa, xotin-qizlarni turli tazyiq va zo'ravonliklardan asrab-avaylash, ularning bu boradagi huquqlari, qonuniy manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy hayotdan to'yinishlari, umuman, ayollar uchun oiladagi sog'lom muhitni yaratish borasidagi sa'y-harakatlar sohaga oid hujjatlarning ijrosida muhim o'rin tutadi.

Shuningdek, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi, Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasi, 2030 yilga qadar O'zbekistonda gender tenglikka erishish strategiyasi, Barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarning qabul qilinishi ushbu sohaning huquqiy asoslarini tubdan mustahkamladi va tegishli tizimli faoliyatni yo'lga qo'yishga xizmat qilmoqda.

Xotin-qizlar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlashning institutsional asoslari yanada mustahkamlandi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining Gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha komissiyasi, Oliy Majlis Senatida alohida qo'mita, Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi yangidan tashkil etildi va faoliyati yo'lga qo'yildi.

2019 yil sentyabr oyida e'lon qilingan "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi qonunga asosan, "Tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarga himoya orderini berish, ijrosini ta'minlash va monitoring olib borish to'g'risida"gi nizom tasdiqlandi. Mazkur nizomga ko'ra, himoya orderi muvofiq seriya va raqamga ega bo'lgan, qat'iy hisobi yuritiladigan, faqatgina tazyiq va zo'ravonlik sodir etgan yoki sodir etishga moyil bo'lgan shaxslarga nisbatan belgilangan cheklovlarni qayd etish bo'yicha hujjat hisoblanadi"[10].

Bu kabi chora-tadbirlar gender tenglik, xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ta'minlash, ehtiyojmand xotin-qizlarga ijtimoiy-huquqiy, tibbiy, psixologik va moddiy yordam ko'rsatish ayollarga nisbatan davlat siyosatining muhim yo'nalishlarini o'zida ifoda etadi. Xotin-qizlar qo'mitasi ma'lumotiga ko'ra, 2019 yilda mingga yaqin ayol maishiy zo'ravonlikdan aziyat chekkan. Qo'mita rahbariyati bu raqam real holatni aks ettirmasligi, chunki tazyiqqa uchrayotgan ayollarning hammasi ham bu haqda ochiq-oydin aytmassligini ma'lum qilgan edi. 2020 yili birgina Toshkent shahrining o'zida ayollarga 966 ta himoya orderi berilgan. Shundan ayollarning 850 nafariga oilasida sodir etilgan holatlar bo'yicha, zo'ravonliklarning 813 tasi oiladagi kelishmovchilik tufayli yuz berganda, 69 tasi moddiy yetishmovchilik, 45 tasi rashk tufayli, 40 tasi oiladagi uchinchi shaxsning aralashuvi (qaynona qaynsingil, qaynopa, qaytib kelgan opachalar aralashuvchilari) natijasida yuzaga kelgan muammolar sababli order berilgan. Ushbu zo'ravonliklarning 556 nafari turmush o'rtog'i, ya'ni erkak kishi tomonidan ayol kishiga yetkazilgan tazyiq bo'yicha, 54 nafari qaynona tomonidan, 46 nafari kelinlar tomonidan qaynona-qaynisingillarga nisbatan, 310 nafari boshqa shaxslar tomonidan ayollarga nisbatan sodir etilgan zo'ravonliklar bo'lgan. Shundan 423 ta holatda jismoniy, 8 tasi jinsiy, 13 tasi iqtisodiy, 664 tasi ruhiy zo'ravonliklar uchun orderlar berilgan. Himoya orderlarining berilishi oila muqaddasligi va uning saqlab qolinishiga, farzandlarning tirik yetim bo'lib qolishi va uning salbiy oqibatlarini oldini olishga xizmat qilmoqda. Bu boradagi ishlarning mantiqiy davomi sifatida xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini tazyiq va zo'ravonlikdan ishonchli himoya qilishning institutsional hamda huquqiy asoslarini tubdan takomillashtirish maqsadida "Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va

qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 2023 yil 11 aprel kuni O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-829-son Qonuni ham qabul qilindi[11]. Mazkur yangi qonun huquqni qo‘llash amaliyotida xotin-qizlar va bolalarning huquqlariga daxl qiluvchi jinoiy qilmishlar uchun mutanosib sanksiyalar belgilanmaganligi, xotinqizlarni shilqimlik va zo‘ravonlikdan himoya qilishning huquqiy kafolatlari mavjud emasligi, tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxsga davlat himoyasini taqdim etuvchi orderning amal qilish muddati (o‘ttiz kun) xotin-qizlarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini yetarli darajada himoya qilinishini ta‘minlash imkonini bermayotganligi, alimentlarni to‘lamaganlik uchun jazo sifatida jarima solinishi yanada ko‘proq moliyaviy qiyinchiliklarni keltirib chiqarayotganligi kabi xotinqizlarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish bilan bog‘liq masalalardagi bir qator muammolarni yechimini hal etishga xizmat qiladi.

2020 yil 18 fevraldagi “Jamiyatda ijtimoiy-ma‘naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5938–sonli Prezident Farmonlarining qabul qilinishi bu boradagi ishlarning mantiqiy davomi bo‘ldi[12]. Mazkur hujjat xotin-qizlar ijtimoiy faolligini qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyatdagi o‘rnini mustahkamlash, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish maqsadida olib borilayotgan ishlar samaradorligini yangi bosqichga olib chiqishda dolzarb ahamiyat kasb etdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” 2020 yil 18 fevraldagi PQ-4602-sonli qarori[13] asosida xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlashga doir davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta‘minlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi roli va faolligini oshirish, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta‘minlash Vazirlikning asosiy vazifalaridan biri etib belgilandi. Xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi rolini oshirish bo‘yicha olib borgan islohotlar natijasida viloyat, shahar va tuman hokimlarining xotin-qizlar masalalari bo‘yicha maslahatchisi lavozimi joriy etildi.

Xotin-qizlarning jamiyat hayotidagi o‘rni va nufuzini oshirish, ularga yangi imkoniyatlar yaratish maqsadida Respublika Xotin-qizlar jamoatchilik kengashi tashkil etildi. Joylardagi Xotin-qizlar kengashlari faoliyatiga esa hokimlarning ushbu masalalar bo‘yicha maslahatchilari rahbarlik qilib kelishdi. Prezident xotin-qizlar kengashini tuzish taklifini ilgari surar ekan, jamiyat turmush darajasining oshishi aynan ayollarga bog‘liq ekanini aniq ko‘rsatib o‘tdi[14].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni qabul qilindi. Aynan, xotin-qizlarning qonuniy huquq va manfaatlarini ta‘minlash, ularning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining muhim yo‘nalishlaridan biri sanaladi[16]. O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining “Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish” deb nomlangan IV yo‘nalishda belgilab berilgan 69-maqsad – xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta‘minlashga qaratildi[15].

2022 yil 1 mart kuni bo‘lib o‘tgan Prezident Sh.Mirziyoyev raisligida xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini yangi bosqichga ko‘tarish va ayollarning jamiyatdagi o‘rnini yanada yuksaltirishga qaratilgan videoselektorda davlat rahbari xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash sohasining yangi tizimini belgilab berdi. O‘zbekistonda Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi tashkil etildi. Qo‘mita oila va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasidagi yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish bo‘yicha vakolatli davlat boshqaruvi organi hisoblanadi.

Quyidagilar qo‘mitaning asosiy vazifalari etib belgilandi:

- xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o‘rni va faolligini oshirish, gender tenglik kafolatlarini ta‘minlash, ilmiy faoliyatga keng jalb qilish;

- oila va xotin-qizlarning muammolarini o'z vaqtida aniqlash, og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan oila va xotin-qizlarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik yordam ko'rsatish;
 - xotin-qizlarga mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasblar bo'yicha bilim va ko'nikmalarni egallashlari uchun zarur sharoitlar yaratish, qishloq joylardagi xotin-qizlarni oilaviy va xususiy tadbirkorlikka, hunarmandchilikka keng jalb etish;
 - xotin-qizlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, oiladagi ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash bo'yicha manzilli chora-tadbirlarni amalga oshirish;
 - xotin-qizlar yo'nalishidagi NNT faoliyatiga yordam ko'rsatish.
- Hujjat bilan quyidagi lavozimlar kiritildi:
- Vazirlar Mahkamasida: Bosh vazir o'rinbosari - Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi raisi;
 - Qoraqalpog'iston Vazirlar Kengashida - Vazirlar Kengashi Raisi o'rinbosari - Oila va xotin-qizlar qo'mitasi raisi;
 - viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarida: hokim o'rinbosarlari - oila va xotin-qizlar boshqarmalari boshliqlari;
 - tuman (shahar) hokimliklarida: hokim o'rinbosarlari — oila va xotin-qizlar bo'limlari boshliqlari.

Yangi Qo'mita raisi ayni paytda Bosh vazir o'rinbosari va Senat a'zosi sifatida faoliyat yuritadi. Joylarda qo'mitaning viloyat, tuman va shahar rahbarlari esa hokim o'rinbosari bo'ladi. Yangi qo'mita Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi hamda "Ayollar daftari" jamg'armasini o'zi boshqaradi[16].

2022 yil 7 mart kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oila va xotin - qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-87 sonli Farmoni qabul qilindi[17].

Mazkur Farmonga muvofiq, ayollarning manfaatlarini himoya etishga qaratilgan qator imtiyozlar belgilab berildi. Xususan: 2022-2026 yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo'yicha milliy dastur tasdiqlandi. Xotin-qizlarning "Davlat boshqaruvida xotin-qizlar faolligini oshirish dasturi"ga muvofiq, Davlat boshqaruvi akademiyasida rahbar xotin-qizlarni tayyorlash bo'yicha alohida o'quv kurslarini tashkil etish hamda har yili kamida 100 nafar xotin-qizlarni o'qitish; 2024 yil 1 yanvarga qadar Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Investisiyalar va tashqi savdo vazirligi, Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi hamda ularning tizimidagi tashkilotlar xodimlari orasida xotin-qizlar ulushini kamida 30 foizga yetkazish, barcha davlat organlari va tashkilotlari, ustav kapitalida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan tashkilotlar hamda ularning tizimidagi tashkilotlar rahbarlarining kamida 1 nafar o'rinbosarini xotin-qizlar orasidan tayinlash, bunda mazkur talab tegishli tashkilot rahbari xotin-qizlar orasidan tayinlanganda yoki unda faqat bir nafar o'rinbosar bo'lgan taqdirda majburiy hisoblanmasligi belgilab qo'yildi. Zero, davlat rahbari ta'kidlaganidek: "Ayollar ishlagan va rahbarlik qilgan joylarda tartib, adolat, halollik, madaniyat yuqori bo'lishi hech kimga sir emas. Shu bois, har bir vazirlik, davlat kompaniyasi, bank va boshqa idoralar bir-ikki yil ichida o'z tizimidagi ayollarni rahbarlikka o'qitib, kamida 1 nafar o'rinbosarini ham ayollardan qo'yadi"[18]. Bugungi kunda respublika davlat va jamoat tashkilotlari tizimida 1 ming 400 ga yaqin xotin-qizlar rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritishmoqda[19]. "Xotin-qizlarning jamiyat va davlat boshqaruvida faol ishtirok etishi bugungi kunning dolzarb masalasidir. Milliy siyosatimiz markazida turadigan eng ezgu maqsad – oilalar mustahkamligini, ayollarimizning huquqiy himoyasi va osoyishta hayotini ta'minlashdan iborat. Gender tenglikka erishish borasida ham tizimli ishlarni olib bormoqdamiz. Jumladan, o'tgan yili oliygohlarga qabul qilingan talabalarining 49 foizini qizlar tashkil etdi. Xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi ulushi esa birinchi marta 35 foizga yetdi. Ayollar va voyaga yetmaganlarni zo'ravonlikdan himoya qilish maqsadida alohida qonun qabul qilindi"[20].

2022- 2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo'yicha MILLIY DASTUR qabul qilindi. Dastur doirasida O'zbekistonda "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi Milliy maqsad va

vazifalar” doirasida ustuvor maqsadlardan biri sifatida “Gender tenglikni ta’minlash va barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish” belgilab olindi. Shuningdek, xotin-qizlarni qo’llab-quvvatlash, ularni kasb-hunarga yo’naltirish, tadbirkorlikka keng jalb etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xotin-qizlarning bandligini ta’minlash va tadbirkorlik faoliyatini qo’llab-quvvatlash borasida “Har bir oila – tadbirkor” dasturi ishlab chiqildi. Oxirgi 2,5 yil mobaynida tijorat banklari va Xotin-qizlarni qo’llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg’armasi mablag’lari hisobidan 496 ming nafar xotin-qizga oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun 9,7 trillion so’m kreditlar ajratildi. 108 ming nafardan ziyod xotin-qizga asbobuskunalar uchun subsidiya ajratildi. Xususan, 2022 yilda bu maqsad uchun 39,9 mingdan ziyod xotin-qizlarga 164 milliard so’mga yaqin, 2023 yil 5 oyida 16 ming 165 nafariga 66,1 milliard so’m subsidiya ajratildi. Bu boradagi sa’y-harakatlar natijasida O‘zbekistonda tadbirkor ayollar ulushi 37 foizni tashkil etmoqda. Mehnat va tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun kasb-hunar va tadbirkorlikni o‘rganish ishtiyoqida bo‘lgan 304 ming 891 nafar xotin-qizlar “Ishga marhamat” monomarkazlarida, kasb-hunar maktablarida mehnat bozori talab etayotgan kasb-hunarga o‘qitildi. Oxirgi 2,5 yil davomida 473 ming 659 nafar xotin-qizlar doimiy ish o‘rinlariga joylashtirildi. 230 mingdan ortiq xotin-qizlar jamoat ishlariga jalb etildi. Bugungi kunda 14 ming 693 nafar xotin-qizlar “Hunarmand” uyushmasiga a’zolikka jalb etilgan bo‘lib, ularga 21 ming 879 nafar shogird biriktirilgan. Boz ustiga, xotin-qizlarning hayot va mehnat sharoitlarini yaxshilashga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Shu maqsadda 2023 yili 872 mingdan ortiq xotin-qizning bandligi ta’minlangani, 250 mingdan ziyodi mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘qitilgani muhim omil bo‘ldi. O‘tgan yili 14 mingga yaqin ayolning uy-joy sharoiti yaxshilandi. “Ayollar daftari” doirasida salkam 642 ming xotin-qizga amaliy yordam ko‘rsatildi [21]. Albatta, ushbu natijalar mamlakatda mehnat resurslarining 45 foizini tashkil etgan ayollarning farovon turmush tarzini ta’minlashga xizmat qilmoqda. O‘zbekistonda faol tadbirkorlikni rag‘batlantirish, investitsiyaviy iqlim va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash orqali yangi ish o‘rinlari yaratishga qaratilgan izchil chora-tadbirlarning samarasi beqiyosdir. Bu borada albatta xotin-qizlar tashkilotlarining o‘rni va rolini alohida e’tirof etish maqsadga muvofiqdir.

2023-yil 21-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oila va xotin-qizlar qo‘mitasining faoliyatini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-208-son Farmoniga muvofiq, Xotin-qizlar faolining quyidagi asosiy vazifalari aniqlashtirildi:

Xotin-qizlarning jamiyatdagi faolligi va huquqiy madaniyatini oshirish, ta’lim olish va har tomonlama manzilli qo’llab-quvvatlashga qaratilgan ishlarni tashkil qilish;

Xotin-qizlar o‘rtasida reproduktiv salomatlik qoidalarini, sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib qilish va sportni ommalashtirish;

Xotin-qizlarni kasbga o‘qitish, bandligini ta’minlash, oilaviy va xususiy tadbirkorlikka jalb etish hamda hunarmandlik faoliyatini qo’llab-quvvatlashga ko‘maklashish;

Ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlarni, og‘ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan oilalarni moddiy va ma’naviy qo’llab-quvvatlash, ularning uy-joy sharoitlarini yaxshilashga ko‘maklashish;

Xotin-qizlar masalalari bo‘yicha mahalladagi “yettilik” bilan ish olib borish, mutasaddi tashkilot va idoralar bilan hamkorlikni rivojlantirish[22].

Umuman olganda, davlat rahbarining tashabbusi bilan mamlakatda xotin-qizlarga yaratib berilayotgan ulkan imkoniyat va sharoitlar tufayli ayollar davlat va jamiyat hayotida faol ishtirok etmoqda. Amalga oshirilayotgan davlat siyosati xotin-qizlarning huquq va erkinliklarini ta’minlash, intellektual va ma’naviy yuksalishi, kasbiy hamda oilaviy majburiyatlarni hamohang tarzda bajarishi uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Xotin-qizlarning mamlakat hayotiga daxldor bo‘lgan qarorlarni qabul qilish jarayonidagi ishtiroki sezilarli darajada ortdi. Natijada parlamentda xotin-qizlar soni BMT tomonidan belgilangan tavsiyalarga mos darajaga yetib, 32 foizni tashkil etdi. Xotin-qizlarning boshqaruv lavozimidagi ulushi 2023 yilda 35 foizga yetdi, tadbirkorlik sohasida 25 foizga, siyosiy partiyalarda 44 foizga, oliy ta’limda 46 foizga yetdi[23]. Ayollarning oila va jamiyatdagi ijtimoiy mavqei yuksalib bormoqda. Ularning ta’lim, mehnat bozori va siyosiy hayotdagi ishtirokini kengaytirish yo‘lida faol ish olib borilayotgan bo‘lsa-da, ammo hali ham gender stereotiplari, iqtisodiy imkoniyatlarning cheklanganligi, oilaviy zo‘ravonlik va boshqa

ijtimoiy to'siqlar kabi muammolar mavjudligini ta'kidlash joiz. Shuning uchun ham, davlat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar, masalan, ayollarga tadbirkorlikda ko'maklashish, ta'lim grantlari va rahbarlik lavozimlariga jalb qilish kabi chora-tadbirlar ushbu muammolarni hal qilishga qaratilgan. Xususan, bu borada xotin-qizlarning zamonaviy kasb-hunar va texnologiyalarni o'zlashtirishi uchun keng ko'lamli dasturlar joriy etilmoqda. Mikromoliyalashtirish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash orqali ayollarning iqtisodiy mustaqilligi oshirilmoqda. Oilaviy zo'ravonlikka qarshi kurash va gender tengligini ta'minlash bo'yicha qonunchilik mustahkamlanmoqda. Ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy kompaniyalar orqali gender tengligi g'oyalari targ'ib qilinmoqda.

Xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan islohotlarning mantiqiy davomi sifatida uni yuqori bosqichga ko'targan amaliy va huquqiy asos bo'lgan 2025-yil 14 martdagi "Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-103-son Prezident Qaroriga ko'ra [24], 2025-yilda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashning asosiy maqsadli ko'rsatkichlari etib quyidagilar belgilandi:

Birinchidan, 2 million nafar xotin-qizlarning bandligini ta'minlanishi uchun barcha hududlarda yana ham ishlar jonlantirib yuborilishiga ham asos, ham qat'iy talab qo'yilgani barcha mutasaddi mas'ul kishilarni aholi bilan yaqinlashishiga chorlaydi.

Ikkinchidan, 250 ming nafar xotin-qizlarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitish ham hech bir oila va uning a'zolarini jamiyatdan uzilib, o'z dardi bilan yashashga qo'ymay, faollikka va tadbirkorlikka chorlagan qarordir. Bunda e'tiborli jihati, "HAMROH" tadbirkor ayollarni qo'llab-quvvatlash dasturi doirasida 2025-yil 1-maydan: xotin-qizlarga "yashil loyihalarni" va IT sohasidagi loyihalarni amalga oshirishiga, shuningdek, kamida 5 nafar xotin-qizning tadbirkorligini yo'lga qo'yishga ko'maklashgan 1 ming nafar "ustoz" tadbirkorlarga 50 million so'mgacha grant ajratish yo'lga qo'yilishi, ijobiy kredit tarixiga ega bo'lgan xotin-qizlarga 100 mln so'mgacha garovsiz kredit ajratilishi, ayol tadbirkorlar tomonidan kredit hisobidan sotib olinayotgan asbob-uskunalar yetkazib berilgunga qadar "Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi" AJ tomonidan kafillik taqdim etilishi yo'lga qo'yilishi eng katta qadam va imtiyozdir

Uchinchidan, 250 ming nafar xotin-qizlarni oliy ta'lim bilan qamrab olinishi yangi Renessansning birinchi sharti sifatida ma'rifatli jamiyat konsepsiyasini amalga oshirishga xizmat qiladi. Zero, ayolni o'qitish jamiyatni, oilani ma'rifatli qilish barobarida ayolga ehtirom – millat va davlatning o'z kelajagiga munosabatining ifodasidir.

Xulosa:

O'zbekiston taraqqiyotining yangi pog'onasida jamiyat hayotining ijtimoiy - iqtisodiy va madaniy-ma'rifiy sohalarida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilib, bu jarayonda sifat o'zgarishlari va tub muammolarni hal etishda ayollarning faolligi yildan-yilga ortib bormoqda.

O'zbekistonning yangi taraqqiyot strategiyasi xotin-qizlar masalasini quyidagi konseptual asoslarga tayanadi:

- Tenglik va adolat: Barcha fuqarolar uchun teng huquq va imkoniyatlar ta'minlanadi.
- Faollik va ishtirok: Ayollarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarda faol ishtiroki rag'batlantiriladi.
- Barqaror rivojlanish: BMTning Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (BRM) doirasida gender tengligi O'zbekistonning uzoq muddatli rivojlanishining ajralmas qismidir.
- Innovatsion yondashuv: Zamonaviy texnologiyalar va raqamli platformalar ayollarning imkoniyatlarini kengaytirish uchun jalb qilinmoqda.

Zero, O'zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichida xotin-qizlar masalasi nafaqat ijtimoiy adolat, balki mamlakatning iqtisodiy va madaniy yuksalishi uchun strategik ahamiyatga ega. Gender tengligini ta'minlash, ayollarning ta'lim va mehnat bozorida faolligini oshirish, shuningdek, ularning huquqlarini himoya qilish orqali O'zbekiston barqaror va farovon kelajak sari qadam tashlamoqda. Ushbu konseptual asoslar mamlakatimizning global maydondagi obro'-e'tiborini mustahkamlashga va xalqimizning turmush darajasini yaxshilashga xizmat qiladi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Сафаева С. Аёллар масаласи: умумижтимоий ва миллий жиҳатлар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2003. – Б.24

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining davlat va ijtimoiy qurilishida xotin-qizlarning rolini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1995 yil 2 martdagi № PF-1084 Farmoni// <https://lex.uz/ru/docs/181343?otherlang=1>; 1998 yil qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasida xotin-qizlar ahvolini yaxshilash bo‘yicha milliy harakat dasturi”, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xotin-qizlarning ijtimoiy muhofazasini kuchaytirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 1999 yil 17 martdagi № PF-2246 Farmoni// <https://lex.uz/docs/212762?twolang=true>; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘ta zararli va o‘ta og‘ir mehnat sharoitlarida ishlayotgan ayollarning daromadiga imtiyozli soliq solish to‘g‘risida”gi 1999 yil 17 martdagi № 117 sonli Qarori// <https://www.lex.uz/ru/docs/279136?twolang=true>; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining “Xotin-qizlarga qo‘shimcha imtiyozlar to‘g‘risida”gi 1999 yil 14 apreldagi №760-1 sonli Qonuni// <https://lex.uz/docs/10550>; 2004 yil 25 maydagi “O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-3434 sonli Farmon//<https://lex.uz/ru/docs/214651>; 2004 yil 29 iyundagi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004 yil 25 maydagi “O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-3434-sonli Farmoni ijrosini ta‘minlash chora-tadbirlari dasturi to‘g‘risida”gi 299-son qarori//<https://lex.uz/ru/docs/337355>; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4245-son/Farmoni, 30.09.2010//<https://lex.uz/docs/-1687443>

3. Mustaqil O‘zbekiston Respublikasining 1992 yil 8 dekabr va uning yangi tahrirdagi Konstitutsiya esa 2023 yil 30 aprel kuni o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan.

4. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI. 01.05.2023. <https://lex.uz/docs/-6445145>

5. 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-conli Farmoni, 2018 yil 2 fevraldagi “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5325- sonli Farmoni, 2019 yil 7 martdagi “Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4235-conli Prezident Qarori, 2019 yil 2 sentyabrdagi “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida»gi O‘RQ 561 - sonli va “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘RQ 562 - sonli Qonunlar//lex.uz; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 martdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999 yil 10 iyundagi PF-2326-son «Zulfiya nomidagi davlat mukofotini ta‘sis etish bo‘yicha takliflarni qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida»gi farmoniga o‘zgartirishlar kiritish haqida”gi PF-5389-son farmoni <https://www.Lex.uz/docs/3602636>; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 5 martdagi PQ-155-son qarori//<https://yuz.uz/news/zulfiya-nomidagi-davlat-mukofoti-bilan-taqdirlash-togrisi>; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 1 martdagi “Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-81-sonli Farmoni// <https://lex.uz/uz/docs/5884143>; “Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 11.04.2023 yildagi O‘RQ-829-son//<https://lex.uz/docs/6430272>; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oila va xotin-qizlar qo‘mitasining faoliyatini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-208-son Farmoni, 21.12.2023 yil// <https://lex.uz/ru/docs/-6704824>; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xotin-qizlar muammolarini o‘rganish va hal etish tizimini yanada

takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori, 31.03.2022 yildagi 145-son//<https://lex.uz/docs/-5932671>

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 fevraldagi "Xotin-qizlarni qo'llabquvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida"gi PF-5325-sonli Farmoni// Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.09.2019 y., 06/19/5840/3826-son//[lex.uz](https://lex.uz/docs/4230944); O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 7 martdagi PF-4235-son "Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori//<https://lex.uz/docs/4230944>; 2020 yil 18 fevraldagi "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5938-sonli Farmoni// <https://lex.uz/docs/4740345>; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 5 martdagi PQ-5020-sonli "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5020-son Qarori//<https://lex.uz/docs/5320582>

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 fevraldagi "Xotin-qizlarni qo'llabquvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida"gi PF-5325-sonli Farmoni// <https://lex.uz/docs/3546742>

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlab o'tkazilgan tantanali marosimdagi nutqidan//<https://president.uz/uz/> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. 07.03.2019// <https://president.uz/uz/2417>

9. Basitxanova E. O'zbekiston ayoli: tarix va taraqqiyot. Ayol huquqi qadimiy qadriyatdir. // Mustaqil O'zbekiston ayollari. –Toshkent: O'zbekiston, 2004. –B.3.; O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasining joriy arxivi, 2013 yil ma'lumotlari.

10. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 2 sentyabrdagi "Xotin-qizlarni tazyiqlar va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi O'RQ -561-son Qonuni//<https://www.lex.uz/docs/4494709>; O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 2 sentyabrdagi "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlar to'g'risida"gi O'RQ -562-son Qonuni // <https://lex.uz/docs/4494849>; "Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 11.03.2019 yildagi O'RQ-528-son//<https://lex.uz/ru/docs/4233891>

11. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 2 sentyabrdagi "Xotin-qizlarni tazyiqlar va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi O'RQ -561-son Qonuni //<https://www.lex.uz/docs/4494709>; "Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 11.04.2023 yildagi O'RQ-829-son //<https://lex.uz/docs/6430272>

12. 2020 yil 18 fevraldagi "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident PF-5938-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/4740345>

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-4602-son qarori, 18.02.2020//<https://lex.uz/ru/docs/-4740335>.

14. Abdullayeva O. Xotin-qizlar Kengashi - ijtimoiy hayotimizdagi muhim organ // <https://xs.uz/uzkr/post/khotin-qizlar-kengashi-izhtimoij-hayotimizdagi-muhim-organ>

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-sonli Farmoni. (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 й., 06/22/60/0082-сон); O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi

O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni // <https://lex.uz/docs/5841063>;

16. Prezidentning 2022 yil 1 martdagi “Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-81-sonli Farmoni// <https://lex.uz/uz/docs/5884143>

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 7 martdagi “Oila va xotin - qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF- 87-sonli Farmoni // <https://lex.uz/pdfs/5899498>.

18. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini yangi bosqichga ko‘tarish va ayollarning jamiyatdagi o‘rnini yanada yuksaltirish va mustahkamlash, shuningdek, ularning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, oilaviy zo‘ravonlikning oldini olish, gender tenglikni qaror toptirishga qaratilgan muhim chora-tadbirlar yuzasidan videosektor yig‘ilishida so‘zlagan nutqidan// 01.03.2022//https://t.me/Press_Secretary_Uz

19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019 yil 7 martdagi Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag‘ishlab o‘tkazilgan tantanali marosimdagi nutqi // <https://president.uz/uz/2417>

20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqi // [https:// president.uz/uz/lists/view/6677](https://president.uz/uz/lists/view/6677). Murojaat sanasi: 02.06.2024

21. 2022-2026 yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo‘yicha Milliy dastur // <https://nrm.uz/contentf?doc = 686891> 2022-2026_yillarda_hotin-qizlarning_mamlakat_iqtisodiy_siesiy_va_ijtimoiy_haetining_barcha_jabhalarida_faolligini_oshiris_h_bo%E2%80%98yicha_milliy_dastur_(o%E2%80%98zr_prezidentining_07_03_2022_y_pf-87-son_farmoniga_1-ilova)&products=1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistana

22. 2023-yil 21-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oila va xotin-qizlar qo‘mitasining faoliyatini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-208-son Farmoni//<https://lex.uz/uz/docs/-6704824>

23. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqi // [https:// president.uz/uz/lists/view/6677](https://president.uz/uz/lists/view/6677). Murojaat sanasi: 02.06.2024

24. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 14 martdagi "Oila va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident [103-son] qarori//<https://lex.uz/docs/7433397?ONDATE=12.05.2025%2000>

ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 7 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 8, НОМЕР 7

LOOK TO THE PAST

VOLUME 8, ISSUE 7

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000